

**ZO'RAVON OTA-ONALARNING FARZANDLARIGA TA'SIRI:
KRIMINOGEN MUHIT SIFATIDA OILA****ALLAMBERGENOV ISLAMBEK SADATDINOVICH***O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti**Ilmiy xodim tadqiqotchisi***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada oila doirasida sodir etilayotgan zo'ravonlik holatlari, xususan, ota-onalarning farzandlarga nisbatan ko'rsatayotgan jismoniy va ruhiy bosimlari kriminologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Farzandlarning ruhiy holati, ijtimoiy xulqi va kelajakdagi jinoyatchilikka moyilligi aynan oiladagi zo'ravonlik muhiti bilan chambarchas bog'liq ekani ilmiy dalillar asosida ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, zo'ravon oilaning bolada qanday ijtimoiy-psixologik oqibatlar qoldirishi, uning jamiyatdagi integratsiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishi ham yoritilgan. Maqolada ushbu muammoning oldini olishda huquqiy, pedagogik va psixologik yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: *zo'ravonlik, oila, ota-ona, farzand, kriminogen muhit, jinoyatchilik, ruhiy bosim, ijtimoiy xulq, profilaktika, psixologik yordam.*

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatda jinoyatchilikning ko'plab ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularning ildizini aksariyat hollarda oiladagi muhitdan izlash mumkin.

Oila farzandning birinchi tarbiya maskani, uning ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Ammo afsuski, ba'zi hollarda aynan oila ichidagi zo'ravonlik holatlari, ota-onalarning jismoniy yoki ruhiy tazyiqlari farzandlarda salbiy psixologik iz qoldiradi, ularning xulq-atvorini buzadi hamda kelajakda jinoyat sodir etishiga zamin yaratadi.

Kriminologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilikka qo'l urgan ko'plab voyaga yetmaganlar zo'ravonlik mavjud bo'lgan oilalarda voyaga yetgan. Bunday oilalar "kriminogen muhit" sifatida qaralib, ular farzandlar ongida tajovuzkorlik, agressivlik, befarqlik va huquqbuzarlikka moyillikni shakllantiradi. Mazkur maqolada aynan shu muhitning farzandlarga ta'siri, uning salbiy oqibatlari va bu holatlarning oldini olish yo'llari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'z nutqlarida oilaning jamiyatdagi o'rni haqida ko'p bor ta'kidlab, oilaviy muhitning sog'lom bo'lishi yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi. U zot: "Farzandlarimiz qalbida ezgulik, insonparvarlik, iymon va or-nomus tuyg'ulari

shakllanmas ekan, hech qanday taraqqiyotdan gap bo'lishi mumkin emas", deb alohida ta'kidlagan.

Davlat rahbari oilaviy zo'ravonlik masalasiga ham jiddiy e'tibor qaratib, bunday muhitda ulg'aygan bolalar ruhiy va ijtimoiy jihatdan jiddiy salbiy ta'sirlarga duchor bo'lishini tan oladi. Unga ko'ra: "Oilada mehr-muhabbat bo'lmasa, farzand kimdan mehr oladi? Unda qanday jamiyatni quramiz? Zo'ravonlikni ko'rib katta bo'lgan bola ertaga jamiyatga qanday munosabatda bo'ladi?"

Shuningdek, prezidentimiz oila muhitining salbiy ta'siri kriminogen holatlarning ildizi bo'lishi mumkinligini aytgan. U bu borada shunday degan: "Jinoyatchilikning ko'p hollarda ildizi oiladagi muammolardan boshlanadi. Ota-ona bola tarbiyasiga befarq bo'lsa, yoki unga nisbatan adolatsiz munosabatda bo'lsa, bu bola ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topa olmaydi. Oxir-oqibat jinoyat yo'liga kiradi."

Uning fikricha, har bir bola sog'lom muhitda, mehr bilan o'sishi zarur. Zo'ravonlik, befarqlik yoki e'tiborsizlikka yo'l qo'yilgan joyda jinoyatchilik ildiz otadi. Prezident shunday deydi: "Biz sog'lom jamiyat qurmoqchi bo'lsak, avvalo sog'lom oila, sog'lom tarbiya, sog'lom muhit yaratishimiz kerak."

2023-yil 11-aprel: Oilaviy zo'ravonlikka qarshi qonun. Ushbu kunlarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan "Oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan himoya qilish choralari haqida"gi qonun qabul qilindi va Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan tasdiqlandi. Bu hujjatda xotin-qizlar va bolalarga nisbatan oiladagi zo'ravonlik birinchi bor jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortildi. U maqsad oilalarni mustahkamlash va huquqlarni ta'minlash edi. Maishiy zo'ravonlik birinchi marta ma'muriy huquqbuzarlik sifatida ko'rib chiqildi. Agar zo'ravonlik bir yil ichida takrorlansa yoki og'ir holat bo'lsa, jinoyat kodeksiga muvofiq jinoiy javobgarlik belgilanadi

2025-yil 9-aprel: "Kelishish muddatini" bekor qilish

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev bu o'zgarishni amalda qo'lladi: agar eri yoki rafiqasi maishiy zo'ravonlik qurboni bo'lgan shaxs, ajralish uchun sudga murojaat etsa, sobit hujjatlar orqali "kelishish muddatini" bekor qilish talab etilishi endi mumkin emas, u avtomatik tarzda ajralish jarayoni boshlanadi. Bu yangilik zo'ravonlik qurboni bo'lgan kishilarga tez yordam va adolatli ajralish imkonini beradigan muhim huquqiy qadam bo'ldi.

2023-yil oktabr: Bolalarga nisbatan zo'ravonlik uchun jazo kuchaytirildi
Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan imzolangan yangi qonun bilan bolalarga maishiy zo'ravonlik qilish holatlarida jarimalar, hamda jinoiy jazo choralari keskin kuchaytirildi. Bu o'zgarishlar Jinoyat va ma'muriy javobgarlik kodekslarida bayon etilgan bo'lib, endi bolalarga zarar yetkazganlar uchun eng og'ir choralar tatbiq etiladi jumladan, qamoq jazolari qat'iy shaklda belgilandi. Bolalarga qarshi zo'ravonlik holatlarida:

Ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoiy javobgarlik belgilandi.

Yengillashtiruvchi holatsiz, maksimal jazo choralari tadbiriq etish nazarda tutildi

Yana bir amaliy chorasi bu ota-onalar bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlash. Bolani o'zgartirish uchun avvalo ota-onaning qarashlarini o'zgartirish kerak. Mahalla, maktab va ijtimoiy xizmatlar birgalikda ota-onalarga psixologik mashg'ulotlar, maslahatlar, suhbatlar orqali zo'ravonliksiz tarbiya usullarini o'rgatishlari lozim. Ota-onalarning o'z hissiyotini boshqarish ko'nikmasi bolaga bevosita ijobiy ta'sir qiladi.

Oxir-oqibat, har bir bola bu kelajak egasi. Uni jinoyatchi emas, sog'lom, to'g'ri fikrlovchi shaxs etib tarbiyalash oila, jamiyat va ta'lim tizimining umumiy mas'uliyatidir. Qonunchilik asoslari: Oilaviy zo'ravonlikka doir moddalar va qarorlar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks (MJK)59-2-modda "Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik" bilan sudlovga tortiladi. Oiladagi shaxsning boshqa turmush o'rtog'i yoki umumiy farzandga egalik qiluvchi shaxsga qarshi qo'rqitish, tahqirlash, mol-mulkka zarar yetkazish yoki huquqiyatini cheklash kabi harakatlari uchun 3–6 million so'm jarima yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoq jazosi qo'llanadi.

Jinoyat kodeksi (JK) 126-1-modda "Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik": Bu modda oiladagi zo'ravonlikning jinoiy ko'rinishi, jumladan moddiy va diniy huquqlarni poymol qilish, og'ir tan jarohatlari bilan birga bo'lgan holatlar uchun nazarda tutilgan. Sud qarorlariga ko'ra, xavf darajasiga qarab axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash yoki 3–12 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazolari qo'llanadi. 2023–2025-yillardagi muhim qonun va o'zgartirishlar

2023-yil 11-aprel kuni qabul qilingan qonun orqali JK va MJKga oilaviy zo'ravonlikka doir yangi normalar kiritildi. Endi birinchi marta sodir etilgan zo'ravonlik holati uchun ma'muriy, ikkinchi holatlar uchun esa jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan. Bunda, ruhiy, jismoniy, iqtisodiy va jinsiy zo'ravonlik shakllari qat'iy nazoratga olinadi. Og'ir darajada tan jarohatlari yoki homilador ayolga nisbatan tahqirlash holatlari sodir etilsa, 12 yilgacha qamoq jazosi berilishi mumkin.

Yuqori sud va tekshiruv mexanizmlari.

Oliy sud Plenumi 1996-yilda qabul qilingan qaror bilan (39-sonli qaror) JK 107-modda "zaruriy himoyalani sh"ni qo'llash mexanizmini yaratgan. Biroq amaliyotda jabrlanuvchi o'zini himoya qilgani uchun 126-1-modda doirasida noto'g'ri malakalanmoqda, zaruriy himoyalani sh tan olinmagan holatlar ko'pincha uchrayapti.

Statistik ma'lumotlar. 2023-yilda JK 126-1-modda bo'yicha 203 nafar shaxs sudlandi, ulardan 59 nafariga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlagan. Shuningdek, MJK 59-2-modda bo'yicha 8 928 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortildi, jumladan 5 229 nafariga jarima, 3 699 nafariga ma'muriy qamoq jazosi belgilangan. Oila ichidagi zo'ravonlik masalasi O'zbekiston qonunchiligida alohida e'tiborga olingan. Bu masala kriminologik nuqtai nazardan ham ahamiyatli bo'lib, jinoyatning ildizi aynan oilaviy muhitda shakllanishi mumkinligi tan olingan. Shu bois,

qonunchilikda oilaviy zo‘ravonlik alohida huquqbuzarlik va jinoyat sifatida belgilangan. Birinchi navbatda, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda oilaviy zo‘ravonlik tushunchasi alohida modda sifatida kiritilgan. Bu modda orqali oilada yashovchi shaxs tomonidan turmush o‘rtog‘i yoki qarindoshiga nisbatan ruhiy, jismoniy yoki iqtisodiy bosim o‘tkazish ma‘muriy javobgarlikka sabab bo‘ladi. Zo‘ravonlik birinchi marta aniqlansa, odatda ogohlantirish yoki muayyan cheklov chorasi qo‘llaniladi. Ammo bu harakatlar takrorlansa yoki zo‘ravonlik og‘ir shaklda namoyon bo‘lsa, jinoyat deb baholanadi.

Jinoyat kodeksida ham oilaviy zo‘ravonlik masalasi bevosita mustahkamlab qo‘yilgan. Bu kodeksga kiritilgan maxsus modda orqali oilada sodir etilayotgan jismoniy, ruhiy yoki jinsiy tajovuz holatlari jinoyat deb e‘tirof etiladi. Ayniqsa, bu harakatlar homilador ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar yoki voyaga yetmaganlarga nisbatan amalga oshirilsa, yanada jiddiy choralar ko‘riladi. Jinoyat kodeksi zo‘ravonlik harakatlarini jamiyat uchun xavfli jinoyatlar sirasiga kiritadi.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida oilaviy zo‘ravonlik ko‘plab hollarda nafaqat ijtimoiy balki jinoiy javobgarlikka tortiladigan qilmish sifatida ko‘rilmoqda.

Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks (59-2-modda) bunday vaziyatlarda birinchi chora sifatida ko‘riladi, Jinoyat kodeksi (126-1-modda) esa tizimli yoki og‘ir holatlar uchun jinoiy chora ko‘radi.

Shuningdek, jabrlanuvchilarning o‘zini himoya qilayotgan oldingi vaziyatlarining ham zaruriy himoyalaniish toifasida to‘g‘ri malakalanishini ta‘minlovchi amaliy mexanizmlar hali to‘liq ishlamayapti. Shu bois sud ishlarida holatlarning kompleks bahosi va oiladagi nizolarning chuqur o‘rganilishi muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Toshkent: Adolat, 2024. (Oilaviy zo‘ravonlikka oid moddalar va huquqiy normalar bayoni)
2. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. Toshkent: Huquq, 2024. (Oilaviy mojarolar bo‘yicha ma‘muriy javobgarlik asoslari)
3. Karimova M., Raximova D. “Oiladagi zo‘ravonlik: psixologik va ijtimoiy yondashuvlar”. Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2021. (Farzand tarbiyasiga oilaviy muhitning ta‘siri haqida ilmiy izohlar)
4. “Kriminologiya: jinoyatchilikning ijtimoiy ildizlari va nazariy asoslari” O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar akademiyasi o‘quv qo‘llanmasi, Toshkent, 2020. (Oila – kriminogen muhit sifatida baholangan hollarning tahlili)